

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD 03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ARZIBAYEV KODIRJON ODILJONOVICH

**O‘SMIRLARDA SPORT FAOLIYATI MOTIVLARINING
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI
(karate bilan shug‘ullanuvchilar misolida)**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

**Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Psychological Sciences**

Arzibayev Kodirjon Odiljonovich

О‘smirlarda sport faoliyati motivlarining psixologik xususiyatlari (karate bilan shug‘ullanuvchilar misolida)3

Арзибаев Кодиржон Одилжонович

Психологические особенности мотивов спортивной деятельности у подростков (на примере занимающихся карате) 23

Arzibayev Kodirjon Odiljonovich

Psychological characteristics of sports activity motivation in adolescents (based on the example of karate practitioners)..... 45

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 49

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD 03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ARZIBAYEV KODIRJON ODILJONOVICH

**O‘SMIRLARDA SPORT FAOLIYATI MOTIVLARINING
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI
(karate bilan shug‘ullanuvchilar misolida)**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/P449 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdpu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Safayev Nuriddin Salihovich
psixologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Qodirov Kamoliddin Botirovich
psixologiya fanlari doktori, professor

Majidov Jasur Baxtiyarovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021.P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «___» _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil “_____” _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

F.A.Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, psixologiya fanlari
doktori (DSc), professor

N.B.Atabayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, psixologiya
fanlari doktori (DSc), professor

Z.T.Nishonova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, psixologiya fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda jismoniy tarbiya va sportning turli yo'nalishlariga zamonaviy bilimlarni kirib kelishi bilan sport sohasida raqobatni kuchayishi, musobaqada peshqadamlikka intilish motivatsiyasining kun sayin ortib borayotganligi, muvaffaqiyatli sportchilarni sport faoliyatiga tayyorlashda ular yutuqlarini muqarrar ta'minlovchi psixologik shart-sharoitlarni yaratish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada «Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti»(JSST)ning ma'lumotlariga ko'ra, 43,4% bolalar va yoshlar sportga jalb etilgan bo'lsa, ulardan 21,5%i yakkakurash sport turlaridan bo'lgan karate bilan shug'ullanishi qayd etilgan»¹. Bunday sharoitda o'smir sportchilarda sport faoliyati motivlarining psixologik xususiyatlarini karate bilan shug'ullanuvchi o'smirlarda namoyon bo'lishi murakkab psixologik jarayon sanalib, uni ilmiy-amaliy tadqiq etish dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Jahon oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida sport faoliyatida motiv va motivatsiya, sport faoliyati motivlarini rivojlantirish, trener-sportchi munosabatlarida faoliyat motivlarini namoyon bo'lishi, sport faoliyati motivlariga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillar, motivatsion soha imkoniyatlarini yanada takomillashtirish va o'smir sportchilarda sport faoliyati motivlarining psixologik xususiyatlari bilan bog'liqligini aniqlash masalalari ilmiy-tadqiq etilmoqda. Bu borada o'smir shaxsida sport faoliyati motivlarini rivojlanishi, o'smir sportchilarda sport faoliyati motivlarining psixologik xususiyatlarini karate bilan shug'ullanuvchi o'smirlar muammosini alohida tadqiqot predmeti sifatida o'rganish zarurati yuzaga keladi.

Yangi O'zbekistonda so'ngi yillarda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, sport bilan ommaviy shug'ullanish ishlari olib borish orqali yoshlarning jismoniy va psixologik salomatligini mustahkamlash, ularni jismoniy jihatdan barkamol voyaga yetishiga ulkan ahamiyat berilgan bo'lib, mazkur muammoning zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi: «...jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar ishlab chiqish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish»² ustuvor vazifalar etib belgilanganligi mazkur muammo bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish uchun zarur asos bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-mayda O'RQ-837-son «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son «O'zbekiston – 2030» Strategiyasi to'g'risida, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son «O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-son «Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy

¹ <https://www.who.int>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni. - <https://lex.uz/docs/5841063>

sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» Farmonlar, 2023-yil 3-noyabrdagi PQ-356-son «Karate (WKF) sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2020-yil 3-noyabrdagi PQ-4877-son «Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2019-yil 13-fevraldagi PQ-4190-son «2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida» Qarorlari hamda ushbu faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsion tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston psixolog va pedagog olimlaridan R.A.Abdurasulov, D.N.Arzikulov, K.G.Atabekova, F.T.Egamberdiyev, Z.E.Gaziyeva, D.Sh.Nasirov, J.A.Pulatov, E.N.Sirliyev, Z.H.Fayziyev, A.U.Xaitov va boshqalar tomonidan sport sohasida muvaffaqiyatli faoliyat olib borish, sportda yuqori natijalarni qayd etish, raqobat muhitiga intilish, sportda murakkab vazifalarni samarali bajarish, tanlagan sport turi bo'yicha o'z jismoniy imkoniyatlarini takomillashtirish, bo'lg'usi sportchilarni sport faoliyatiga yo'naltirish, saralash va tanlashga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari ma'lum darajada olib borilgan. Biroq, sport faoliyatiga innovatsion yondashuvlarni jalb etish mexanizmlari, sportda aynan faoliyat motivlarini rivojlantirishning tizimli shakllari va ularni takomillashtirish kabi masalalar o'rganilmagan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan G.M.Avanesyan, A.G.Aseyev, I.Bojovich, O.V.Dashkevich, E.P.Ilin, V.I.Kovalyev, A.A.Lalayan, M.Sh.Magomed-Eminov, P.A.Rudik, A.V.Rodionov, V.F.Sopov, A.V.Shaboltas va boshqalar tomonidan jismoniy madaniyat va sport sohasi mutaxassislarining kasbiy kamolotini ta'minlashning psixologik shart-sharoitlari, sport motivlarining rivojlanish masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

Xorij olimlaridan J.W.Atkinson, J.Kretti, P.Kunath, A.Maslou, Y.R.Nutten, Y.Y.Palayma, R.A.Piloyan, X.Xekxauzen va boshqalar tomonidan trener faoliyatining psixologik-pedagogik jabhalari, sport musobaqalashuv faoliyati ekanligi, chempionatlar va jismoniy talablar, sport motivlarining tabiati, irodani boshqarish jihatini tarbiyalash, erkin tanlov va motivatsion yondashuvlarning ahamiyati hamda sportchi shaxsini xarakterlovchi psixologik xususiyatlar ilmiy muammo sifatida tadqiq etilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston Milliy universitetini ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining PZ-20170913120-raqamli «Oliy ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlar

tayyorlashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari» loyihasi doirasida bajarilgan (2018-2020-y.y).

Tadqiqot maqsadi o‘smir sportchilarda sport faoliyati motivlarining psixologik xususiyatlarini aniqlash, empirik tahlil etish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

o‘smir sportchilarda sport faoliyati motivlarini psixologik xususiyatlarini aniqlashning psixodiagnostik metodikalar majmuini shakllantirish hamda amaliyotda qo‘llash uchun tizimlashtirish;

o‘smir sportchilarda sport faoliyati motivlariga ta’sir etuvchi psixologik sifatlarni aniqlash;

sport faoliyati motivlarini shakllantiruvchi psixologik omillar va sport faoliyatining muvaffaqiyatini ta’minlovchi psixologik mexanizmlarni aniqlash va empirik jihatdan dalillash;

o‘smir sportchilarda sport faoliyati motivlarini psixologik xususiyatlarini omillar kombinatsiyasi orqali takomillashtirish.

Tadqiqot obykti etib o‘smir sportchilarda sport faoliyati motivlarining psixologik xususiyatlarini tadqiq etish jarayoni tanlangan bo‘lib, tadqiqotga Toshkent shahri, Andijon va Qashqadaryo viloyatlaridan sharqona yakka kurashning karate-do sport turi bilan ayni vaqtda shug‘ullanayotgan jami 857 nafar o‘smir sportchilar respondentlar sifatida jalb etildi.

Tadqiqot predmetini o‘smir sportchilarda sport faoliyati motivlarining psixologik xususiyatlari va unga ta’sir etuvchi psixologik omillar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda kuzatish metodi, shuningdek, A.V.Shaboltasning «Sport bilan shug‘ullanish motivlari» metodikasi, Y.L.Xanin va A.V.Stambulovning «Trener-sportchi munosabatlari shkalasi» metodikasi, V.E.Milmanning «Shaxs motivatsion tuzilmasi» metodikasi, Y.M.Orlovning «Muvaffaqiyatga erishish ehtiyoji» test-so‘rovnomasi hamda M.Kubishkinaning «MAS» so‘rovnomasidan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik statistika metodlaridan Fisher mezoni, Student t-mezoni hamda K.Pirsonning r-korrelyatsion mezoni orqali tasdiqlandi.

Tadqiqot ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘smir sportchilarda muvaffaqiyat motivatsiyasi sport faoliyatining samaradorligi ekanligiga ko‘ra, matonatlilik, axloqiy-irodaviy sifatlar jamoaviy va yakka harakatlarni ta’minlashning psixologik omillari bo‘lishi aniqlangan;

o‘smir sportchilarda faoliyat motivlari salbiy shakllanishining darajalariga ko‘ra, frustratsion tolerantlik, xavfli va emotsional zo‘riqishdan qochishni kuchliligi irodaviy mas’uliyatsizlik, qat’iyatsizlik hamda faoliyat barqarorligining reaksiyasi ekanligi dalillangan;

o‘smir sportchilarda sport faoliyati motivlarini shakllanishi kommunikativ simbioz, emotsional intellekt, axloqiy-irodaviy sifatlariga ko‘ra, «trener-sportchi» muloqot aktining psixologik mexanizmi ekanligi asoslangan;

o'smir sportchilarda sport faoliyati motivlari shakllanishi asnosida gnostik, hissiy, identik komponentlar kasbiy tayyorlik, sportni bilish va ijtimoiy mavqeiga erishishning ustuvor integratsion omillar kombinatsiyasi bo'lishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'smir sportchilarda sport faoliyati motivlarini psixologik xususiyatlarini mahalliy sharoitda aniqlashning psixodiagnostik metodikalar majmui shakllantirilgan hamda amaliyotda qo'llash uchun tizimlashtirilgan;

o'smir sportchilarda sport faoliyati motivlariga ta'sir etuvchi psixologik sifatlar tizimliliigi shakllantirilgan hamda amaliyotda aprotatsiya qilingan;

o'smir sportchilarda sport faoliyati motivlarini shakllantirish modeli ishlab chiqilgan va amaliyotga yo'naltirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot jarayonida to'plangan ma'lumotlarning ishonchliligi tadqiqot obyektining O'zbekiston muhitida tanlanganligi, olingan empirik miqdorlar matematik-statistikaning ishonchli usullari yordamida tahlil qilinganligi, ilmiy jihatdan asoslanganligi, xalqaro miqyosda tan olingan metodik vositalar, matematik-statistikaning aniq metodlari qo'llangani, sinalluvchilar tanlanma to'plamining hajmi va uning reprezentativligi, empirik izlanishlar nazariy chuqur asoslab berilgani, aniqlangan ko'rsatkichlarning boshqa mualliflar taqdim etgan ma'lumotlar bilan qiyosiy tahlil etilib, bunda ishonchli manbalarga asoslanganligi, empirik natijalarning maqsadga muvofiq tahlil qilinganligi, xulosa va amaliy takliflarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli organlar va tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy natijalari. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy va amaliy xulosalar kelgusida o'smir sportchilarda sport faoliyati motivlarining psixologik xususiyatlarini o'rganishda, sportchida sport faoliyatida yuzaga keladigan psixologik o'zgarishlarni anglashga qaratilgan nazariy hamda amaliy ma'lumotlar bilan boyitish natijasida o'smir sportchilarning sport faoliyati motivlarini rivojlantirishda yosh va pedagogik psixologiya, sport psixologiyasi, psixodiagnostika, psixologik xizmat, umumiy psixologiya kabi tarmoqlarda yangi istiqbolli yo'nalishlarni ochib berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa, jismoniy tarbiya va sport tizimi sohasida samarali sport faoliyatiga tayyorlashda hamda sportchilar kasbiy faoliyatida psixologik o'zgarishlarni anglashida, sportga ixtisoslashtirilgan ta'lim tashkilotlarida sportchilarning sport faoliyatida uchrayotgan turli emotsional zo'riqishlarni bartaraf etishda samara berishi, taklif etilgan tavsiyalardan jismoniy tarbiya va sport tizimidagi sportchilar, trenerlar hamda sport psixologlarining kasbiy faoliyatini takomillashtirish, sport psixologiyasi fani maxsus lug'atini ilmiy boyitishda keng foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'smir sportchilarda sport faoliyati motivlarining psixologik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

o'smir sportchilarda muvaffaqiyat motivatsiyasi sport faoliyatining samaradorligi ekanligiga ko'ra, matonatlilik, axloqiy-irodaviy sifatlar jamoaviy va

yakka harakatlarni ta'minlashning psixologik omillari bo'lishi aniqlanganligi to'drisida ilmiy xulosalar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 21-noyabrdagi PM-265-sonli buyrug'iga asosan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» va «Sport psixologiyasi» modullariga tatbiq qilingan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 28-noyabrdagi PM-265-a-sonli ma'lumotnomasi). Natijada o'smir sportchilarda sport faoliyati motivlarini shakllantiruvchi samarali psixologik omillar transformatsiyasini tizimlashtirish imkoniyati yaratilgan;

o'smir sportchilarda faoliyat motivlari salbiy shakllanishining darajalariga ko'ra, frustratsion tolerantlik, xavfli va emotsional zo'riqishdan qochishni kuchliligi irodaviy mas'uliyatsizlik, qat'iyatsizlik hamda faoliyat barqarorligining reaksiyasi ekanligi dalillanganligiga oid natijalar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 21-noyabrdagi PM-265-sonli buyrug'iga asosan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» va «Sport psixologiyasi» modullariga tatbiq qilingan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 28-noyabrdagi PM-265-a sonli ma'lumotnomasi). Natijada bu o'smir sportchilarda sport faoliyat motivlariga ta'sir etuvchi psixologik reaksiyalarni aniqlashning psixodiagnostik jihatlarini takomillashtirishga xizmat qilgan;

o'smir sportchilarda sport faoliyati motivlarini shakllanishi kommunikativ simbioz, emotsional intellekt, axloqiy-irodaviy sifatlariga ko'ra, «trener-sportchi» muloqot aktining psixologik mexanizmi ekanligi asoslanganligiga doir natijalar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 21-noyabrdagi PM-265-sonli buyrug'iga asosan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» va «Sport psixologiyasi» modullariga tatbiq qilingan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 28-noyabrdagi PM-265-a-sonli ma'lumotnomasi). Natijada o'smir sportchilarda sport faoliyati motivlarida ijobiy munosabatini shakllantirishda «ustoz-shogird» munosabatlari bilan bog'liq ilmiy-amaliy natijalarni boyitilishiga erishilgan;

o'smir sportchilarda sport faoliyati motivlari shakllanishi anosida gnostik, hissiy, identik komponentlar kasbiy tayyorlik, sportni bilish va ijtimoiy mavqeiga erishishning ustuvor integratsion omillar kombinatsiyasi bo'lishi isbotlanganligiga doir natijalar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 21-noyabrdagi PM-265-sonli buyrug'iga asosan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» va «Sport psixologiyasi» modullariga tatbiq qilingan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 28-noyabrdagi PM-265-a-sonli ma'lumotnomasi). Natijada bu sport ta'lim muassasalaridagi trener va psixolog-mutaxassislarda kasbiy malaka ko'nikmalarini oshishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari, jumladan, 5 ta xalqaro, 9 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqotning asosiy natijalari bo'yicha 10 ta ilmiy maqola O'zbekiston Respublikasi OAK tavsiya etgan jurnallarda, shu jumladan, 4 tasi xorijiy jurnalda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, to'qqizta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 130 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

«**Kirish**» qismda dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot mavzusi bo'yicha xorijiy adabiyotlar sharhi tavsiflangan, maqsad va vazifalar belgilangan, tadqiqot usullari, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotdan olingan natijalarning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotga tatbiq etilganlik holati, ilmiy nashrlarda e'lon qilinishi, dissertatsion ishning tuzilishi yuzasidan ma'lumot keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**O'smir sportchilarda sport faoliyati motivlarining psixologik xususiyatlarini tadqiqot obykti sifatida o'rganilishi**» deb nomlangan.

Birinchi paragraf to'lalig'icha tana salomatligi ruh salomatligining asosi ekanligi, bola tarbiyasi jismoniy tarbiya bilan birga bo'lishi kerakligini yoritib, faoliyatdagi faollik mohiyatan harakatlar maqsadi (motivlar) hamda harakatlantiruvchi kuch (motivatsiya)ning psixologik ta'sirlari hamda shaxs xususiyatlarini namoyon etishning o'chog'i sifatida yoritishga bag'ishlangan. Jumladan, Ibn Sino o'zining «Tib qonunlari» asarida sog'lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy mashqlarning, sportning roli haqida gapirar ekan, «Badan tarbiya kishini chuqur va ketma-ket nafas olishga majbur qiluvchi ixtiyoriy harakatdir», hamda «Mo'tadil ravishda va o'z vaqtida badantarbiya bilan shug'ullanuvchi odam buzilgan xiltlar tufayli kelgan kasalliklarning va mijoz hamda ilgari o'tgan kasalliklar tufayli keluvchi kasalliklarning davosiga muhtoj bo'lmaydi» – deb, yozadi. Amir Temur esa, «Temur tuzuklarida» jangchilarning jismoniy chiniqqan, baquvvat va epchil bo'lishi muhimligini yaxshi tushungan, juda ko'p harbiy yurishlar taqdirini jangchilarning mahorati va jasorati hal qilgan edi. Shu bois Amir Temur askarlar tanlashda quyidagilarga e'tibor berar edi. «Qo'shin tuzib, navkar olmoqda uch qoidaga amal qildim: birinchidan – yigitning kuch quvvati, ikkinchidan – qilichni o'ynata olishiga, uchinchidan – aql-zakovati-yu kamolotiga e'tibor qildim. Shu fazilatlar jamuljam bo'lsa, navkarlik xizmatiga oldim. Negaki, kuch-quvvatli yigit har qanday qiyinchiliklarga, azobu uqubatlarga chidamli bo'ladi, qilich o'ynata oladigan kishi raqibini mag'lub eta oladi, oqil navkar har joyda aql-idrokini ishga solib, mushkulotni daf etmog'i mumkinligini» ta'kidlaydi. Abu Nasr Farobiy «Qalb holatini mo'tadil saqlash uchun sog'lom vujud zarur»dir deb ta'kidlab o'tgan. Buning mazmunida hozirgi davrdagi anatomiya, fiziologiya, psixologiya, jismoniy tarbiya va sport, tibbiyot fanlari asosida odam tanasining tuzilishi, uning barcha faoliyatini harakatlantirish yo'llari hamda ruhiy jihatdan doimo o'zini boshqara olish masalalariga alohida ahamiyat qaratadi. Alisher Navoiy asarlarida

insonning har tomonlama barkamol bo‘lib yetishishida kishilarning jismonan sog‘lom va baquvvat bo‘lishiga ham jiddiy e‘tibor berilib, asarlaridagi qahramonlari Farhod, Qays, Iskandar kabi obrazlarda jismoniy tarbiya va dilovarlik ta‘limi namoyon bo‘ladi. Binobarin insonni sog‘lom va baquvvat bo‘lib yetishishi haqidagi o‘g‘itlar o‘sha davr ta‘lim-tarbiyasiga oid ta‘limiy, axloqiy asarlarida yetakchi o‘rinlarni egallagan. Shuningdek, Abdulla Avloniy sog‘lom fikr, yaxshi axloq ilm-ma‘rifatga ega bo‘lishi uchun badanni tarbiya qilish zarur. «Badanning salomat va quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o‘qimoq va o‘qitmoq, o‘rganmoq va o‘rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir» deya eslatadi. Abdurauf Fitrat esa, jismoniy tarbiyaga, kishining salomat va baquvvat bo‘lib tarbiyalanishiga alohida ahamiyat berib, «Badan tarbiyasiga qadim zamonlardan boshlab katta ahamiyat berilgan. Insonning butun a‘zosi salomat va quvvatga ega bo‘lmasa, unda inson uzoq yashamaydi. Agar insonning tanasidagi a‘zoldan biriga kasal tegsa, u kishi ishdan qo‘lini tortib, boshqalarning muhtojiga aylanadi» degan fikrlari bilan kelajakka salomatlik ruhda, tanada va ahloqda bo‘lishi kerakligi haqidagi qarashlarni shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ikkinchi paragrafda sport faoliyatida sportchilar motivlarini shakllantirishda ta‘sir mexanizmlarining shakllariga G‘arb psixologiyasi tadqiqotlarining ahamiyat xususida so‘z boradi. Sportchi shaxsida aniq motivatsiya xususiyatini bilmasdan uni yuqori natijalarni erishishga tayyorlab bo‘lmaydi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, sportchi shaxsining faoliyatida muvaffaqiyat va yutuqlari ko‘p jihatdan ulardagi motivatsiyaga bog‘liq. Motivatsiya – harakatni qo‘llab-quvvatlaydigan va yo‘naltiradigan, ya‘ni harakatni belgilaydigan omillar to‘plami (J.Godfrua). Motivatsiya – motivlar yig‘indisi (K.K.Platonov). Motivatsiya – aniq faoliyatni psixik tartibga solish jarayoni (M.Sh.Magomed-Eminov). Motivatsiya – motivning harakat jarayoni va faoliyatning aniq shakllarining yuzaga kelishi, yo‘nalishi va amalga oshirilish usullarini belgilaydigan mexanizm sifatida (I.A.Djidaryan). Motivatsiya – undovchi va faoliyat uchun javob beradigan jarayonlarning umumiy tizimi sifatida (V.K.Vilyunas). Motivatsiya – harakatning asosi sifatida motivni shakllantirishning dinamik jarayoni (E.P.Ilin). Motivatsiya – bu ehtiyoj, motiv va inson faoliyatining boshqa tashabbuskorlarining rag‘batlantiruvchi xususiyati. Motivatsiyaning eng yetuk, insoniy shakli motivdir (V.G.Leontyev). M.Sh.Magomed-Eminov hamda E.P.Ilin ta‘riflariga qo‘shilgan holda bizning fikrimizcha motivatsiya – motivlar yig‘indisi bo‘lib, insonni u yoki bu harakat faolligiga undovchi ichki dinamik jarayondir. Motiv - insonni u yoki bu harakat faolligiga undovchi ichki kuchdir.

Uchinchi paragrafda faoliyat motivlarini zamonaviy psixologiyada nazariy asoslarini shakllanishi doirasida yoritilib, har qanday faoliyat tarkibida uchta bosqich muhim hisoblanadi lekin sport faoliyatida faoliyatni yakunlash bosqichi yaqqol namoyon bo‘ladi. Motivatsiyaning o‘ziga xos xususiyati uning ta‘sir doirasi hisoblanib, sport faoliyatida bevosita ishtirok etadi. R.A.Abdurasulov sport mashg‘ulotlarining o‘quvchi-sportchilar shaxsini shakllanishidagi ro‘li (yakkakurash turlari misolida) masalasiga bag‘ishlangan tadqiqotida o‘quvchi shaxsini

shakllantirishda uning psixologik xususiyatlariga sharq yakkakurashi mashg'ulotlarining ta'sirini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqqan.

Dissertatsiyaning «**O'smir sportchilarda sport faoliyati motivlarini namoyon bo'lishining empirik tahlili**» deb nomlangan ikkinchi bobida o'smir sportchilarda sport faoliyati motivlarini o'rganishning psixodiagnostik metodikalarning ilmiy-metodologik tahlili, sport faoliyati motivlarining psixologik tavsifi, o'smirlarda sport faoliyati motivlari namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlarini aniqlash bo'yicha natijalarning empirik tahlili keltirilgan.

O'smir sportchilarda faoliyat motivlarining ta'sir ko'rsatkichlariga ko'ra psixologik xususiyatlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

O'smir sportchilarda faoliyat motivlarining psixologik xususiyatlarga ta'sir ko'rsatkichlari, (n=857)

Faoliyat motivlari	O'smirlarning natijalari
Muloqot	3.5
Bilish	3.8
Moddiy manfaat	3.3
Harakter va psixologik jihatlarni oshirish	4.0
Jismoniy yetuklik	3.6
O'zni yaxshi his qilish	3.4
Estetik qoniqish	4.0
Hayot uchun foydali bilimlarni oshirish	3.9
Qo'llab-quvvatlash ehtiyoji	3.9
Obro' oshirish	3.9
Jamoaga yo'nalganlik	4.2
Hissiy qoniqqanlik	4.4
Ijtimoiy o'zini-o'zi tasdiqlash	3.6
Jismoniy o'zini-o'zi tasdiqlash	4.6
Ijtimoiy-emotsional	4.3
Ijtimoiy-axloqiy	5.3
Sportda muvaffaqiyatga intilish	5.0
Sport-bilishga oid ehtiyoj	4.4
Ratsional-irodaviy	3.1
Kasbiy faoliyatga tayyorgarlik	4.9
Fuqarolik-vatanparvarlik	5.1

Olingan natijalar o'smir sportchilarning motivatsion sohasi rang-barangligini namoyon etib, sportchi o'smirlarda ijtimoiy-axloqiy (5,3), fuqarolik-vatanparvarlik (5,1), sportda muvaffaqiyatga intilish (5,0) darajadagi ko'rsatkichlar motivlarning ustuvor xarakterga ega ekanligini namoyon etdi. Bu o'smir sportchilarda burch, Vatanga sadoqat, milliy o'zlik, milliy g'urur, ijtimoiy mas'uliyat hislarini tarkib topganligini anglatishi bilan birga o'smir sportchilarda «sportchi-trener-jamoa» munosabatlari triadasidagi samimiy sinotonik muloqot, guruhij jipslik, guruhga mansublik va ishtirokchilarning bir-biri oldidagi mas'uliyati, o'z ustida ishlash, o'zini takomillashtirish, musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etishga intilish, vatanparvarlik hisini yuqori bo'lishini ta'minlaydi. O'smir sportchilarning motivlarni

namoyon bo'lish ko'rsatkichlari orasida eng past natija ratsional-irodaviy (3,1), moddiy manfaat (3,3), o'zini yaxshi his qilish (3,4) shkalalarida kuzatilib, bu sportchilarning rekreatsion motivlari, ya'ni o'zini jismoniy passivligini, jismoniy charchoqlarini sport orqali yengishga intilish hisini yorqin darajada namoyon bo'lmasligini, aksincha, o'smirlardagi fiziologik o'zgarishlar ularni jismoniy harakatchanligini oshirishi bilan belgilanib, o'smirlarning sport bilan shug'ullanishida moddiy manfaatdorlikning past ekanligi, ko'proq ijtimoiy motivlarning ustuvorligini ko'rsatadi.

2-jadval.

V.E.Milmanning «Shaxs motivatsion tuzilmasi» metodikasi shkalalari bo'yicha o'smir sportchilarning motivatsion tuzilmasini toifalariga ko'ra shakllanishi, (Student t-mezoni bo'yicha, n=857)

Shkalalar	M	O'smir sportchilar toifasiga ko'ra	t
Tirikchilikni ta'minlash	2,10	Viloyat chempionlari	0,08
	1,56	Respublika chempionlari	
Komfort	1,30	Viloyat chempionlari	0,005*
	2,45	Respublika chempionlari	
Ijtimoiy status	0,90	Viloyat chempionlari	0,003**
	1,98	Respublika chempionlari	
Muloqot	1,12	Viloyat chempionlari	0,12
	1,75	Respublika chempionlari	
Umumiy faollik	1,95	Viloyat chempionlari	0,14
	2,36	Respublika chempionlari	
Ijodiy faollik	1,25	Viloyat chempionlari	0,10
	1,86	Respublika chempionlari	
Ijtimoiy faollik	1,20	Viloyat chempionlari	0,004*
	2,43	Respublika chempionlari	

Izoh: * - $p < 0,05$, ** - $p < 0,01$.

Olingan tadqiqot natijalarimizga ko'ra «komfort» ($t=0,005$; $p < 0,05$), «ijtimoiy status» ($t=0,003$; $p < 0,01$), «ijtimoiy faollik» ($t=0,004$; $p < 0,05$) shkalalarida ahamiyatli natijalar qayd etildi. Sababi, karate sporti turi bo'yicha tayyorgarlik olib borayotgan o'smir sportchilarning sport faoliyatiga doir motivlarini shakllanishining psixologik xususiyatlarining namoyon bo'lishi jamiyatdagi o'z statusini belgilashga intilishni yuqoriligi, o'zining muvaffaqiyati orqali ijtimoiy faollik darajalarini oshirishga intilishni yuqoriligi faoliyat motivlarini shakllanishida ijrochi psixologik xususiyatni namoyon etishini ko'rsatadi. Ahamiyatlilik darajalariga muvofiq Respublika chempionlarida viloyat chempionlariga ko'ra «komfort» (2,45), «ijtimoiy status» (1,98), «ijtimoiy faollik» (2,43) shkalalari bo'yicha ustunlik kuzatilishi mumkin bo'ldi (2-jadvalga qarang).

V.E.Milmanning «Shaxs motivatsion tuzilmasi» metodikasi bo'yicha o'smir sportchi faoliyatining motivatsion tuzilmasiga ta'sir etuvchi asosiy omillar tahliliga

muvofiq tadqiqotdan olingan natijalar shuni namoyon qildiki, karate sport turi bo'yicha o'smir sportchilarning motivatsion faolligi omillar tahlilida (F5) bo'yicha «ijtimoiy mavqei»ni ta'minlash hisoblanib (F=0,445; p<0,01) natijani namoyon etdi. Sababi, har bir sportchining faoliyat turidan qat'iy nazar ijtimoiy muhitda avvalo o'z o'rniga ega bo'lish ehtiyojlarining qondirilmashligi keyingi muvaffaqiyatlarni ham ta'minlamasligini bayon etadi. Shuning uchun ham «ijtimoiy mavqei» boshqa sohalardan ko'ra sportchilarda tan olinish, obro'ga ega bo'lish, tanilish va mashhurlikni ta'minlovchi motivlarni shakllantirishda muhim omil sifatida ishtirok etishi kuzatilar ekan. Sportchilarda «tirikchilikni ta'minlash» (F=0,630; p<0,05), «komfort» (F=0,876; p<0,05) omillarini namoyon bo'lish darajasi moddiy qiziqishlarni kuchayishi ortidan yuzaga kelib, sportchi faoliyatidagi motivlar to'qnashuvida yuzaga kelishi bilan asoslanadi. Sportchilarning individual-psixologik xususiyatlaridagi ayrim omillarning yorqinroq namoyon bo'lishi faoliyatda motivatsion faollikni ta'minlanishiga ta'sir etishi ma'lum bo'ldi.

3-jadval.

A.V.Shobaltasning «Sport bilan shug'ullanish motivlari» metodikasi bo'yicha sport faoliyatida muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi shkalalari korrelyatsiyasi (K.Pirson r- mezon bo'yicha, n=857)

	Ijtimoiy motiv	Raqobatga intilish	Maqsadga erishish
Ijtimoiy motiv	1,000	0,373*	0,567**
Raqobatga intilish	0,373*	1,000	0,450*
Maqsadga erishish	0,567**	0,450**	1,000

Izoh: * - p<0,05, ** - p<0,01.


A.V.Shobaltasning «Sport bilan shug'ullanish motivlari» metodikasi bo'yicha sportchilarda maqsadga erishish motivatsiyasi «ijtimoiy motiv» va «raqobatga intilish» (r=0,373; p<0,05), «raqobatga intilish» va «ijtimoiy motiv» (r=0,373; p<0,05), «maqsadga erishish» va «ijtimoiy motiv» (r=0,567; p<0,01), «maqsadga erishish» va «raqobatga intilish» (r=0,450; p<0,01) shkalalari o'rtasida o'zaro bog'liqlik borligini namoyon bo'ldi. Natijada hissiy komponentni yuqori baholagan sportchilarda ijtimoiy motiv, raqobatga intilish va maqsadga erishish motivlarda o'zaro bog'liqlik bo'lib, bu sportchilarda uchala motivlar jamlanmasi borligidan dalolat beradi. Bu holat ularning sport natijalarida ham o'z aksini topganligini kuzatishimiz mumkinligini ko'rsatadi (3-jadvalga qarang).

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**O'smir sportchilarda sport faoliyati motivlarining psixologik xususiyatlarini korrelyatsion tahlili**» deb nomlangan, unda sportchining motivatsion munosabati sport faoliyatini ta'minlovchi omil sifatida, o'smir sportchining sport faoliyati motiviga ta'sir etuvchi psixologik xususiyatlar va o'smirlarda sport faoliyati motivlarini belgilovchi, shakllantiruvchi psixologik omillarning o'zaro bog'liqligi tahlil etilgan.

Sport faoliyatining predmetini o'z ichiga oluvchi motivatsiyaning asta-sekin shakllanishi amalga oshadi va faoliyatning muvaffaqiyatiga ta'sir etuvchi omillar

ishtirokida psixologik xususiyatlarni yorqin namoyon bo'lish darajasiga ko'ra o'zaro aloqadorliklarni aniqlash imkoniyati kengayadi.

Yuqoridagi omillar tahliliga ko'ra ustunlik ko'rsatgan «ijtimoiy mavqey» shkalasi natijalari omillar ketma-ketligiga ko'ra ham yorqinlikni namoyon etdi. Sababi, sport faoliyatida ijtimoiy-axloqiy motivlar yuqori bo'lishi (9,28) jismoniy kamolotga intilishda, moddiy rag'batlarni qabul qilishda, muvaffaqiyatga intilish motivlarining shakllanishi hamda tavakkalchilikni ta'minlashga kuch berishi mumkinligini ko'rsatadi. Shuningdek, har bir ijtimoiy mavqeining qiymati aslida shaxsning axloqiy barkamolligi mezonini bilan o'lchanadi. Zero, ijtimoiy va ma'naviy barkamollik sportchining turli darajadagi sport musobaqalarini qabul qila olishi, jamoani jipsligi, o'zaro hurmatni shakllanishida muhim jihat bo'lib xizmat qiladi. Shunisi muhimki, sportchi o'zini emotsional intellekt xususiyatlari bilan jamoadoshlari orasidagi hurmati orqali psixik faollik bilan jismoniy faollikka erishishi mumkinligi ko'plab taqqiqotlarda o'z isbotini topgan. Ichki xotirjamlik va atrofdagilarning ruhiy madadiga o'zini hurmat qilish orqali erishilishi kuzatiladi.



1-rasm. O'smir sportchilarda sport faoliyati motivlarining ketma-ketligi, (n=857).

1-rasmda o'smirlarda ko'p hollarda jismoniy quvvat uni ustida ko'proq ishlashni emas, balki energiyani ko'proq sarflash bilan kechishi muhim hisoblanadi. Sababi, jismoniy intizomni qabul qilishdan ko'ra, tezroq natija ko'rsatish bilan izohlanadi. Motivlar ketma-ketligiga ko'ra ham past namoyon bo'ladigan motivlar sportchilardagi ayniqsa, o'smir sportchilardagi «jismoniy kamolotga erishish» (2,06) motivi ekanligi kuzatildi. O'smir sportchilardagi «jamoaga bo'lib harakat qilish» (6,26),

«sportda muvaffaqiyatga erishish» (5,13) motivlarining ketma-ketligiga ko'ra namoyon bo'lishi sport sohasining tarmoqlariga ko'ra, bilimlarni o'zlashtirish o'zining faoliyatidan kutadigan yutuqlarining kelajakdagi ahamiyatini ang'ay olishi bilan bog'liq ekanligi kuzatildi.

A.Maslouning fikricha, bir ehtiyojni qondirilishi keyingi ehtiyojlar uchun imkoniyat eshiklarini ochadi. Zero, ijtimoiy – ma'naviy yetuklikka erishish uchun sportchidan birlamchi jismoniy yetuklik ustida ishlash, bilim, malaka, tajribaga ega bo'lish oliy darajani egallay olish motivlarini shakllanishida omillar mexanizmi sifatida ishtirok etishi mumkinligi kuzatildi.

O'smir sportchilardagi sport faoliyati motivlarini shakllanishining omillar tahlili shuni ko'rsatadiki, ikkita asosiy komponentlarga birlashuvchi motivlar kategoriyasiga ko'ra, umumiy va individual omillarni tashkil etadi. Jamoani birlashtirish hamda jamoaviy jipslik musobaqalardagi ishtirokning darajalariga ko'ra ahamiyatli hisoblanib, natijalarning realligini ta'minlaydi.

4-jadval.

O'smir sportchilarda sport faoliyati motivlarini umumiy va individual psixologik omillari (n=857)

Motivlar	Omillar	
	1	2
Gnostik	0,775	
Hissiy		0,704
Xulqiy		0,779
Identik	0,546	

Izoh: * - $p < 0,05$, ** - $p < 0,01$.

Sport faoliyati motivlariga muvofiq, birinchi – umumiy motivlarning «gnostik» ($F=0,775$; $p < 0,05$) ahamiyatligiga ko'ra, ma'naviy yetuklik moddiy ta'minot motivlarining ustunligini yengib o'tish, moddiy ehtiyojlar erishish ustunligidan sportchilarni himoya qilishda ishtirok etuvchi motivlar kategoriyasi hisoblanar ekan. Bu pozitsiya aynan ijtimoiy-ma'naviy motivlarning ketma-ketlik iyerarxiyasiga ko'ra joylashuvdagi ustunligini yana bir bor isbotlanganligini ko'rsatib, Sharqona yakka kurashning karate-do sport turi bilan shug'ullanish bilishga intilish motivlariga bog'liq ekanligini ko'rsatdi.

Sportchilarda sport faoliyatiga doir motivlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar aynan karate turida ahamiyatli bo'lgan individual motivlar «hissiy» ($F=0,704$; $p < 0,05$), «xulqiy» ($F=0,779$; $p < 0,05$) omillar komponentlari doirasida motivlar shakllanishida ahamiyatli ekanligi kuzatildi. Sababi, sportchilardagi hissiy va xulqiy motivlar ijtimoiy mavqeini saqlab qolish,

muvaffaqiyatga erishish bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchilik darajalarini mustaqil baholay olish imkoniyatini oshiradi. Chunki, sport faoliyatida, ayniqsa, karate-do turida, kurashchilar o'rtasidagi munosabatlar janglarni tashkil etilishi musobaqalarning qoidalarini saqlab qolish, munosabat o'rnatish hamda sportchi imidjini barqarorligini ta'minlashga oid xususiyatlarni muvofiqlashtirishning muhim fazilati sifatida namoyon bo'ladi. Xulqiy komponentni yuqori baholagan sportchilarda karate-do bilan shug'ullanishlari uchun mashhurlar bilan uchrashish, tanishish ular bilan suhbatlashish, ularning yurish turishi, xatti-harakati qiziqtirganligi bilan bog'liq motivlar dispozitsiyasi muhim o'rin tutganligini ko'rsatdi ($F=0,779$; $p<0,05$).

O'smir sportchilarning hissiy komponentga ustuvorlik berishlari ham yosh davrlariga oid hisoblanib, sportchilarni keyingi faoliyatlarini muvaffaqiyatini ta'minlashda e'tibor qaratilishining zaruratini anglatadi ($F=0,704$; $p<0,05$). Ko'proq energiya sarflash xususiyati ustun bo'lgan sportchilar guruhlarida tezkorlik, destruksiya, psixik o'ta faollikning kuchayishi hissiy holatlarda muhim ahamiyatga ega ekanligini namoyon etadi. Bu ayniqsa travmalar bilan bogliqligi hamda nazardan chetda qolishda kayfiyatning o'zgaruvchanligi, shuningdek, jamoadoshlarni tushunish, raqibni his etishda individual omillar sifatida ustunlik qilishi mumkinligi bilan izohlanadi (4-jadvalga qarang).

O'smir sportchilarda muvaffaqiyatga erishish motivlarining darajalariga ko'ra, omillar komponentlarining o'zaro aloqadorligi «ijtimoiy-axloqiy» ($r=0,605$; $p<0,01$), «kasbiy faoliyatga tayyorlik» ($r=0,941$; $p<0,01$) to'rtinchi darajadagi omillar komponentlariga birlashib ko'p mehnat talab etiladigan natijalarni o'zida jamlaganligini ko'rsatadi. Jamoani va sportchi faoliyati motivlarini shakllanishi ayniqsa o'smirlik davri xususiyatlaridan sanalib, his etish, tushunish, o'zini namoyon etishning aqliy jihatlari, ijtimoiy munosabatlarda tavakkalchiliklarni his eta olishi orqali muvaffaqiyatga erishish aynan to'rtinchi darajadagi omillar komponentlariga birlashishi orqali kuchli namoyon bo'lishi mumkinligi bilan izohlanadi.

O'smir sportchilardagi individual-psixologik xususiyatlarga ko'ra «reaksiyon motiv» va birinchi darajali omillar komponentlarining o'zaro teskari aloqadorligi kuzatildi ($r=-,864$; $p<0,01$).

